

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



«ELEKTR ENERGETIKA» KAFEDRASI

**“Elektr ta’minoti tizimida elektr tarmoqlari”
fanidan kurs loyihasini bajarish uchun**

USLUBIY KO’RSATMA
(5520200- “Elektr energetika” ta’lim yo’nalishi)



Qarshi – 2012 y.

Tuzuvchilar: “Elektr energetika” kafedrası mudiri, dotsent
Zayniyeva Olya Egamberdiyevna,
“Elektr energetika” kafedrası dotsenti
Fayziyev Maxmanazar Mansurovich,
katta o’qituvchi
Rustamov Tolib Toshmurodovich.

Taqrizchilar: TDTU “ Elektr stantsiyalari, tarmoqlari va
tizimlari” kafedrası mudiri, t.f.d, prof
G’oyipov To’lqin Shernazarovich,
Qashqadaryo TYuKT yetakchi muhandisi
Xushmurodov Azamat Ro’ziyevich.

Ushbu uslubiy ko’rsatma 5520200 “Elektr energetika” ta’lim bakalavr akademik darajasini olish uchun tahsil olayotgan talabalarga “Elektr ta’minoti tizimida elektr tarmoqlari“ fanidan kurs loyihasini bajarish uchun ko’rsatma sifatida yozilgan. Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti.

Metodik ko’rsatma da elektr tarmoqlaridan kurs loyihasini bajarish uchun kerak bo’lgan barcha bosqichlar aniq misollar bilan ko’rib chiqilgan hamda, kerakli hajmda elektr uskuna va jihozlarining parametrlari jadvallar va texnik- iqtisodiy ma’lumotnomalari keltirilgan.

Ushbu uslubiy ko’rsatma “Elektr energetika” kafedrasida ko’rib chiqilgan, Energetika fakulteti uslubiy komissiyasi va institutni uslubiy Kengashining tavsiyasiga ko’ra chop etishga ruxsat etilgan.

KURS LOYIHASI BO'YICHA UMUMIY KO'RSATMALAR

1.1 Kurs loyihasining maqsadi

Ushbu kurs loyihasi 5520200 “Elektr energetika” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi.

Kurs loyihasining maqsadi - “Elektr energetika” ta’lim jarayonida o’tilgan fanlardan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish hamda, tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib, texnik-iqtisodiy hisoblashlarni va chizma-grafik qismlarni bajarishdir.

1.2 Kurs loyihasida ko’riladigan masalalar

Hududiy elektr tarmog’i shunday loyihalanishi kerakki, uni amalga oshirishda eng kam iqtisodiy xarajatlar talab etilsin, bu elektr tarmoqni boshqarishdagi minimum yillik xarajatlarni tashkil etsin. Amaliy hisoblarda yillik xarajatlarning minimumlari mos kelmaydi. Odatda, qimmatroq ko’riladigan variant kam xizmat ko’rsatish xarajatlarini talab etadi. Agar, solishtirilayotgan variantlar ishonchlilik jihatdan bir xil bo’lsa, ishlatishlardagi xarajatlari katta bo’lgan variant ko’rib chiqilmaydi.

Kurs loyihasini to’g’ri bajarishning asosiy ko’rsatkichi, iste’molchilar toifasini, ta’minot iqtisodiylikini, tarmoqni istiqbolli ishlatilishi va rivojlanishini hisobga olgan holda, elektr ta’minoti uzluksizligini va elektr energiya sifatini ta’minlashdir.

Kurs loyihasini bajarishda quyidagi asosiy masalalarni ko’rib chiqish lozim bo’ladi:

1. Elektr tarmoqning (tarmoq va podstantsiyalar) ulanish sxemasini tanlash;
2. Elektr tarmoqning nominal kuchlanishini tanlash;
3. Elektr tarmoqlar simining kesimi va markasini, ustunlar turi va zanjirlar sonini tanlash;
4. Podstantsiyalar uchun transformatorlarning rusumi, quvvati va sonini tanlash;
5. Elektr ta’minoti variantini maksimal, minimal va avariya dan keyingi rejimlarda quvvatlar va energiya isroflari bo’yicha hisoblash;
6. Texnik-iqtisodiy hisoblarga asoslanib, eng qulay elektr ta’minot variantini tanlash;
7. Quvvatlar va energiya isrofini kamaytirish tadbirlarini ko’rib chiqish.

1.3. Kurs loyihasini rasmiylashtirish

Kurs loyihasi 20-25 varaq hajmdagi tushuntirish yozuvi va chizma-grafik qismlaridan iborat.

Tushuntirish yozuvida kurs loyihasining vazifasi, bajarilgan bo’limlar va chizmalarni ko’rsatuvchi mundarija keltiriladi. Kurs loyihasi hajmini kamaytirish uchun berilgan ma’lumotlardan boshlab, oxirigacha hisoblab. Olingan natijalar jadvallarga yoziladi. Kerak bo’lganda, tushuntirish yozuvi, rasmlar, chizma-grafiklar,


sxemalar bilan (millimetrli qog'ozda) to'ldiriladi. Bunda hamma hisoblash, almashtirish sxemalari tushuntirish yozuvida tavsiya etilgan variantni asoslash va tasdiqlash uchun keltirilishi lozim.

Tushuntirish yozuvini oxirida talaba bajargan loyiha t o'g'risida qisqacha xulosa va qo'llanilgan adabiyotlar ro'yxatini keltirishi lozim.

Chizma-grafik qism bitta A-2 formatdagi chizmadan iborat. Unda berilgan hududiy elektr ta'minotining radial va xalqali variantlarida quyidagilarni ko'rsatgan holda chizilishi kerak:

- podstantsiyalarda , tanlangan transformatorning soni, rusumi, nominal quvvati va kuchlanishi, tanlangan shinalar sistemasini hisobga olgan holda o'chirgichlar yacheykalari;

- tarmoqlarda hisob raqami (masalan, 3-HT), uzunligi kmlarda, simlarning tanlangan kesimi va markasi, zanjirlar soni va tavsiya etiladigan ustunlar turlari. Masalan:



1.1- rasm. Bir va ikki zanjirli elektr tarmoqlari.

Har bir variantning hisoblash, almashtirish sxemalari keltiriladi. Unda normal rejimdagi quvvatlar oqimi, podstantsiyalardagi PK va YuK shinalaridagi kuchlanish va talab etiladigan holda kompensatsiya qurilmalarining quvvati ko'rsatiladi. Chizmalarni bajarishda Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilinadi. Chizmani pastki o'ng tomonida burchak shtamp chiziladi.

2. KURS LOYIHASI UCHUN TOPSHIRIQ VA DASTLABKI MA'LUMOTLAR

2.1 Dastlabki ma'lumotlar

Kurs loyihasini bajarish uchun har bir talabaga iste'molchi podstantsiyalar va ta'minot markazlari joylashgan bosh reja beriladi. Elektr ta'minotining manbaalari – bu hududiy ahamiyatga ega yirik elektr stantsiyalar va cheksiz quvvatli sistema. Odatda, elektr stantsiya ma'lum quvvatli manbaa (agregatlar soni, quvvati va $\cos\varphi$ ma'lum) hisoblanadi, sistema esa, balanslovchi manbaa hisoblanib, istalgan 110, 220, 500kV kuchlanish bo'lishi mumkin. Sistema kurs loyihasida ko'rilayotgan hududiy elektr ta'minotida yetishmaydigan aktiv quvvatining berishi va iste'molchilar minimal yuklama bilan ishlayotgandagi ortiqcha quvvatini olish ham mumkin.

Biroq, reaktiv quvvat bo'yicha ko'rilayotgan elektr tarmog'i o'zi balanslanishi kerak, ya'ni uning cheksiz quvvatli sistema bilan bog'lanishi $\cos\varphi = 0,97-1$ chegarasida bo'lishi kerak. Iste'molchilar uchun quyidagilar beriladi:

- yuklamalar aktiv quvvati $-P_n$, MVt; - quvvat koeffitsiyenti $\cos\varphi$;
- yillik iste'mol qilinadigan energiya $-W_n$, kVt*soat.


3. BERILGAN HUDUDIY ELEKTR TA'MINOTINI HISOBLASH SXEMASINING VARIANTLARINI TANLASH

Kurs loyihasini bajarishda har bir iste'molchi uchun hisobiy kattaliklari: P_n , $\cos\varphi$, W_n berilgan. Uzunliklar yig'indisi minimal bo'lgan eng qulay variant tavsiya etiladi. Bunda, quyidagi texnik talablar ta'minlanishi kerak:

1. I-toifali iste'molchilarni uzluksiz ta'minlash, hamda II va III-toifali iste'molchilar uchun ruxsat etilgan ishonchlilik;
2. Ta'minlash va zahiradagi quvvatlar oqimini hisobga olgan holda, sxema tanlash;
3. Ishlatiladigan uskuna va materiallarning imkon darajada minimal soni;
4. Elektr tarmoq sxemasi soda bo'lishi kerak, chunki bunda hodimlarning xato harakatlari ehtimoli va xizmat ko'rsatish xavfsizligi kamayadi;
5. Ta'minot punktlaridan chiqayotgan havo tarmoqlari imkon darajada bir xil yuklanishi kerak.

Agar, variantlar texnik jihatdan raqobatlasha oladigan bo'lsa, unda keyingi hisoblash uchun tarmoqlar uzunligining jami yig'indisi eng kam bo'lgan variant tanlanadi.

Misol. Berilgan joylashishdagi va turli toifali iste'molchilar uchun quyidagi radial sxemali ta'minot variantlari keltirilgan:



3.1- rasm. Elektr ta'minotining radial sxema variantlari.

a,b,c,d variantlarni uzunliklari yig'indisi bo'yicha solishtirib, faqat "a" va "d" variantlar bir xil va ma'qulligini ko'ramiz. Hisoblash uchun "a" – variantni tanlaymiz chunki, "C" va "E" podstantsiyalar ta'minoti ishonchliroq. Huddi shunday, halqali variantlarni solishtirib ko'rib, so'ngra hisoblash uchun optimal variant tanlanadi.

Halqali variant tanlashda:

- a) halqa uchun bitta kuchlanish qabul qilinadi. Halqa qo'shilmalarida kuchlanish bo'lishi mumkin;
- b) yuqori ishonchlilik darajali podstantsiyalarni (I va II-toifali) halqalash kerak;
- v) halqada birlashtirilayotgan yuklamalar imkon darajada yaqin qiymatli bo'lishi lozim.

Izoh. Hisoblash variantlari kurs loyihasi rahbari bilan kelishgan va tasdiqlangan bo'lishi kerak.

4. RADIAL VARIANTNI ELEKTR TA'MINOTI HISOB

4.1. Tarmoqning nominal kuchlanloyihasini tanlash

Kurs loyihasini bajarishda elektr tarmog'ini nominal kuchlanishini to'g'ri tanlash muhimdir chunki, tarmoqning iqtisodiy va boshqarishdagi harajatlari shunga bog'liq. Hududiy elektr tarmoqlarini hisoblashda 35–500kV kuchlanish, tarmoq uzunligi 250kmgacha va quvvati 60MVt gacha elektr tarmoqlari uchun qo'llaniladigan quyidagi nominal kuchlanish tanlash uslublari tavsiya etiladi:

a) $U_n = 4,34 * \sqrt{\ell + 0,016P_n}$

bu yerda, ℓ – tarmoq uzunligi km, P_n - iste'molchining quvvati - kVt;

b) $U = 10\%$ va $\cos\varphi = 0,85$, sim kesimiga bog'liq chegaraviy uzatiladigan quvvat va chegaraviy tarmoq uzunligi.

4.1-jadval.

Simlarning markalari	$U_n=36,7 \text{ kV}$		$U_n=115 \text{ kV}$		$U_n=230 \text{ kV}$	
	P, MVt	ℓ , km	P, MVt	ℓ , km	P, MVt	ℓ , km
AC-35	1,9	65	-	-	-	-
AC-50	2,7	56	-	-	-	-
AC-70	3,78	50	11,8	158	-	-
AC-95	5,15	45	16,1	142	-	-
AC-120	6,5	40	20,3	126	-	-
AC-150	8,12	36	25,4	113	-	-
AC-185	10	32	31,3	101	-	-
ACO-240	-	-	40,6	86	84,4	250
ACO-300	-	-	50,7	74	102	220
ACO-400	-	-	-	-	136	170

v) $T = 3000-5000$ soat va $\cos\varphi = 0,9$ po'lat-alyuminiy sim tarmog'ining iqtisodiyligi bo'yicha.

4.2-jadval.


Iqtisodiy quvvat - MVt, simning kesimi, mm²

Kuchlanish kV	AC-35	AC-50	AC-70	AC-95	AC-120	AC-150	AC-185
35	2,22	3,17	4,44	8	7,6	9,5	11,3
110	AC-70	AC-95	AC-120	AC-150	AC-185	AC-240	ACO-300
	13,9	18,8	23,8	29,7	36,7	47,5	59,5
220	ACO-240	ACO-300	ACO-400	ACO-500			
	80,8	118	158	197			

Elektr tarmoq kuchlanishini tanlashga oid misol.

Ikkita yuklamali:

1) "C" podstantsiya -50MVt, 2)"B" podstantsiya 100 MVt va ularni o'zaro bog'lovchi tarmoq berilgan, uzunligi km. Quvvat yo'nalishi sxemadagidek olinsin.



4.1-rasm. Ikki yuklamali tarmoq.

1. "BC" uchastkadagi quvvat "C" nuqtadagi yuklamaga teng, ya'ni 50MVt iqtisodiy quvvat jadvalidan 110kV kuchlanish tanlanadi.

2. "AB" uchastkadagi quvvat "B" va "C" nuqtalardagi yuklamalar yig'indisiga teng, ya'ni $50 + 100 = 150$ MVt. Iqtisodiy quvvat jadvalidan ikki variantdan, bir zanjirli yoki ikki zanjirli 220kV kuchlanish tarmoqlardan birini tanlash mumkin.

3. Chegaraviy uzatiladigan quvvat jadvali bilan tanlangan kuchlanishni tekshirish ham, huddi shunday natija beradi.

4. "AB" uchastkada tarmoq kuchlanishni tanlashda variantlarni texnik – iqtisodiy solishtirishdan so'ng yoki iste'molchilar toifasini hisobga olgan holda, amalga oshiriladi.

5. "AB" uchastkada tarmoq kuchlanishni tanlashda "A" ta'minlovchi podstantsiya kuchlanishni e'tiborga olish lozim.

4.2. Tarmoq simlarining kesimlari va ular parametrlarini hisoblash

Hududiy elektr tarmoqlaridagi similar kesimini tanlash, tokning iqtisodiy zichligi bo'yicha tojlanishga, normal va avariyadan keyingi ishchi rejimdagi ruxsat etilgan tok bo'yicha tekshirilib so'ngra, amalga oshiriladi. 35kV va yuqori kuchlanish havo elektr tarmoqlari uchun odatda, AC, ACO, ACU markali simlar ishlatiladi. Bunday simlar uchun tokning iqtisodiy zichligi maksimal yuklamaning ishlatilish davomiyligiga (T-soat, O'rta osiyo iqlim sharoitiga) bog'liq.

4.3-jadval

T(soat)	1000 - 3000	3000 - 5000	5000 - 8760
J, A/mm ²	1,5	1,4	1,3

Simning hisobiy kesimi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{his} = I_m / j_{his}.$$

Bu yerda $I_m = \frac{S_m}{\sqrt{3} * U_n}$, tarmoqning maksimal ishchi rejimdagi yuklama toki A,

S_m - maksimal rejim uchun tarmoqqa uzatiladigan to'la quvvat MVA,

U_n - tarmoqning nominal kuchlanishi kV.

Simning hisoblangan kesimiga yaqin bo'lgan standart kesim tanlanadi hamda, ular tojlanishga ko'ra tekshiriladi. 110kV kuchlanishda, simning kesimi 70mm² dan katta bo'lgan, 220kV kuchlanishda kesimi 240mm² dan yuqori bo'lgan simlar tojlanish bo'yicha tekshirilmaydi.

Agar, tanlab olingan kesim iqtisodiy quvvat jadvalida tavsiya etilgandan katta bo'lsa, unda kattaroq kuchlanish tanlash yoki ikki zanjirli tarmoqni qabul qilish lozim bo'ladi. Simning kesimini aniqlashdan oldin, maksimal rejimda barcha tarmoqlardan oqadigan quvvatlar qiymati aniqlanloyihasi kerak. Radial variantda har bir radius oxiridagi ta'minot manbaiga tomon yuklama quvvatlari qo'shib borish yo'li bilan bajariladi. Simning kesimini - tokning iqtisodiy zichligi bo'yicha hisoblashda, j_{his} ni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. "T" har bir podstantsiyaning maksimal yuklamalar vaqtiga bog'liq va u quyidagicha hisoblanadi:

$$T = \frac{W_{yil}}{P_m}, \text{ soat.}$$

bu yerda, P_m – yuklamaning maksimal aktiv quvvati, W_{yil} – iste'molchi (podstantsiya) oladigan yillik elektr energiya qiymati.


Agar, bir nechta podstantsiyaning ta'minlaydigan tarmoq kesimi hisoblansa, unda bu tarmoq uchun $T_{o'rt}$ qiymati quyidagicha topiladi:

$$T_{o'rt} = \frac{P_{em} * T_z + P_{sm} * T_s + ... + P_{nm} * T_n}{P_{em} + P_{sm} + ... + P_{nm}}$$


a) topilgan "T" qiymat bo'yicha, j_{mk} , F_{his} aniqlanadi. Berilgan elektr stantsiya shinasini bilan sistemani bog'lovchi elektr uzatish tarmog'ining kesimini aniqlashga

alohida ahamiyat berish kerak. Bu tarmoqdan ko'rilayotgan elektr tarmog'I ishchi rejimlariga bog'liq quvvatlar oqadi: maksimal, minimal va avariya dan keyingi rejimlar quvvati. **Misol.**


1) Maksimal rejim uchun;



2) Minimal rejim uchun;



3) Avariya dan keyingi rejim uchun (elektr stantsiyada bitta generator o'chgan holat uchun);




4.2-rasm. Elektr tarmog'ining ishchi rejimlari.

Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, 3 – HT tarmog'ining kesimi maksimal rejim bo'yicha 150 MVA aniqlanadi va avariya dan keyingi rejim bo'yicha 175 MVA tekshirilishi kerak.

- Izoh.** 1. Sistema bilan bog'lovchi tarmoq kuchlanishi tarmoqning ko'rib chiqilgan ishchi rejimlari(maksimal yoki minimal rejim)dagi oqadigan maksimal quvvat bo'yicha tanlanadi lekin, bunda elektr stantsiya YuK shinalaridagi kuchlanish hisobga olinishi kerak.
2. Sistemani bog'lovchi tarmoq uchun j_{his} ni aniqlashda $T = 5000$ soat olinadi.
3. Minimal rejimda barcha yuklamalar 60% gacha kamayadi.
4. Avariya dan keyingi rejimda II va III – toifali podstantsiyalar yuklamasi 70% gacha kamayishi kerak.
5. Avariya dan keyingi rejimda tarmoqning faqat bitta elementi shikastlangan deb olinadi va bu parametrlarni tanlanishi kurs loyiha rahbari tasdiqlashi kerak.
- Misol:** “B” va “C” podstantsiyalar yuklamasi, ularning quvvat koeffitsiyenti, oraliq masofalari, yillik elektr energiya iste'moli, toifasi berilgan:

4.4-jadval

$P_b = 100 \text{ MVt}$	$\cos \varphi = 0,9$	$\ell_{ab} = 90 \text{ km}$	$W_a = 400 \text{ GVt} \cdot \text{soat}$	I – toifa
$P_c = 50 \text{ MVt}$	$\cos \varphi = 0,8$	$\ell_{bc} = 60 \text{ km}$	$W_c = 225 \text{ GVt} \cdot \text{soat}$	II – toifa



4.3- rasm. Elektr tarmoqning tavsifi.

“B” va “C” podstantsiyalar uchun yuklama ishlatilishining maksimum vaqti va to'liq quvvatlarini aniqlaymiz.

$$T_z = \frac{W_z}{P_z} = \frac{400 \cdot 10^6}{100 \cdot 10^3} = 4000 \text{ soat},$$

$$T_c = \frac{W_c}{P_c} = \frac{225 \cdot 10^6}{50 \cdot 10^3} = 4500 \text{ soat},$$

$$S_z = \frac{P_z}{\cos \varphi_z} = \frac{100}{0,9} = 111 \text{ MVA},$$

$$S_c = \frac{P_c}{\cos \varphi_c} = \frac{50}{0,8} = 62,5 \text{ MVA}.$$

F_{1-HT} kesimini - tokning iqtisodiy zichligi bo'yicha aniqlash uchun $T_{o'rt}$ ni hisoblash kerak.

$$T_{o'rt} = \frac{W_z + W_c}{P_z + P_c} = \frac{(400 + 225) \cdot 10^6}{(100 + 50) \cdot 10^3} = 4167 \text{ soat}.$$

1- HT hisobi

Elektr tarmog'ida oqadigan to'la quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{1-HT} = S_{2-HT} + S_B = 111 + 62,5 = 173,5 \text{ MVA}.$$

Elektr tarmoqdagi tokni aniqlaymiz:

$$I_{1-HT} = \frac{S_{1-HT}}{\sqrt{3}U_{1-HT}} = \frac{173,5 \cdot 10^3}{1,73 \cdot 220} = 456 \text{ soat.}$$

“B” podstantsiyasidan ta'minlanuvchi I– toifali iste'molchilarning elektr ta'minoti ishonchliligi uchun **metall ustunli** ikkita parallel tarmoq qabul qilamiz. Har bir tarmoqdan yuklama hisobiy tokining yarmi oqadi, ya'ni $456/2 = 228 \text{ A}$.

Shu tok bo'yicha har bir elektr tarmog'ining kesimini tanlaymiz:

$$F_{1-HT} = \frac{I_{1-HT}}{j_{iq}} = \frac{228}{1,4} = 185 \text{ mm}^2.$$

Bu yerda $j_{iq} = 1,4 \text{ A/mm}^2$, $T_{o'rt}$ 4.3 -jadval asosida qabul qilinadi.

220kV kuchlanish elektr tarmoqlari uchun tojlanish sharti bo'yicha 240 mm^2 dan kam bo'lmagan kesim simni tanlash tavsiya etiladi. Shuning uchun ikki zanjirli tarmoq 2*ACO-240 tanlanadi va 6.10(b) -jadvaldan 1km shu tarmoqni qurish narxini yozib olamiz, ya'ni – 112 mln. so'm/km.

Zanjirlar sonini ikkitadan ortiq tanlash iqtisodiy jihatdan samarali bo'lmaydi. Bitta tarmoq avariya o'chganda, hamma yuklama ishlaydigan ikkinchi tarmoqdan oqadi. Undagi toklar 456 A ni tashkil etadi. 4.3- jadval asosida, uni qizishi bo'yicha ruxsat etilgan tokga tekshiramiz. ACO-240 uchun $I_{RE} = 605 \text{ A}$ va avariya dan keyingi rejimdagi tok – 456 A dan ancha oshib ketadi.

Elektr tarmoqning parametrlarini aniqlash uchun 4.4- jadvaldan ACO-240 uchun 220kV kuchlanishda simlar orasidagi o'rtacha geometrik masofa $D_{o'r} = 9 \text{ m}$ ni tashkil etadi. Simning solishtirma qarshiliklari va o'tkazuvchanligi r_0 , x_0 va q_0 qiymatlarini tanlab olamiz. Bu tanlab olingan qiymatlar masofasi 100 km bo'lgan elektr tarmoq uchun berilgan. Shundan so'ng, butun tarmoq uchun ularni qiymatlarini hisoblaymiz:

4.5 - jadval

Jadvaldan	Bir zanjir uchun	Ikki parallel zanjir uchun
$r_0 = 13 \text{ Om/km}$	$R_{1-HT} = 13 \cdot 93/100 = 11,7 \text{ Om}$	$R_{1-HT} = 11,7/2 = 5,85 \text{ Om}$
$x_0 = 43 \text{ Om/km}$	$X_{1-HT} = 43 \cdot 90/100 = 38,7 \text{ Om}$	$X_{1-HT} = 38,7/2 = 19,35 \text{ Om}$
$q_0 = 1,4 \text{ MVAr/km}$	$Q_{1-HT} = 14,1 \cdot 90/100 = 12,7 \text{ MVAr}$	$Q_{1-HT} = 12,7 \cdot 2 = 25,4 \text{ MVAr}$

q_0 quvvatni quyidagi formulada hisoblash ham mumkin:

$$q_0 = U_{1-HT}^2 \cdot b_0, \text{ MVAr/km,}$$

bu yerda, b_0 -1km tarmoqning sig'im o'tkazuvchanligi.

Unda, butun tarmoq ishlab berayotgan Q_c quvvat quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q_c = q_0 \cdot \ell_{1-HT}, \text{ MVAr.}$$

Ikki parallel elektr tarmoq uchun hisoblangan parametrlar, almashtirish sxemasida tarmoqning maksimal ishchi rejimlarini hisoblashda, bitta zanjir uchun hisoblangan parametrlar, avariya dan keyingi rejimni hisoblashda qo'llaniladi.

2- HT hisobi

Elektr tarmoqda maksimal rejimda oqadigan to'la quvvat $S_{2-HT} = 62,5 \text{ MVA}$. Elektr tarmog'idagi tokni hisoblaymiz:

$$I_{2-HT} = \frac{S_{2-HT}}{\sqrt{3}U_{2-HT}} = \frac{62,5 \cdot 10^3}{1,73 \cdot 110} = 328 \text{ A}.$$

Hisoblangan tokning qiymati bo'yicha tarmoq simining kesimini tanlaymiz:

$$F_{2-HT} = \frac{I_{2-HT}}{j_{ih}} = \frac{328}{1,4} = 234 \text{ mm}^2.$$

“C” Podstantsiya II-toifali iste'molchi bo'lgani uchun, bir zanjirli tarmoqqa metal ustun va ACO-240 simni tanlaymiz. Yuqorida ko'rsatilgan jadvalda r_0 , x_0 va q_0 qiymatlarini ACO-240 uchun 220 kV kuchlanish va simlar orasidagi o'rtacha geometrik masofa $D_{o'rt} = 5 \text{ m}$ ga teng bo'lgan holat uchun quyidagilarni hisoblaymiz.

4.6-jadval

Jadvaldan	2 – HT uchun	
$r_0 = 13 \text{ Om/km}$	$R_{2-HT} = 13 \cdot 93 / 100 = 11,7 \text{ Om}$	
$x_0 = 43 \text{ Om/km}$	$X_{2-HT} = 43 \cdot 90 / 100 = 38,7 \text{ Om}$	
$q_0 = 14,1 \text{ MVAr/km}$	$Q_{2-HT} = 14,1 \cdot 90 / 100 = 12,7 \text{ MVAr}$	

Almashtirish sxemasida 2-HTni boshi va oxiriga 4,23MVAr reaktiv quvvatni yozib qo'yamiz.

4.3 Podstantsiyalarida transformatorlar tanlash va ular parametrlarini hisoblash

Transformatorlar tanlashda [A-1] yoki ushbu qo'llanmada keltirilgan 6.8 -jadvaldan foydalanish mumkin.

a) Kuchaytiruvchi podstantsiyalarda transformatorlar tanlash.

Tanlanadigan har bir transformatorning quvvati generator quvvatiga teng yoki bir pog'ona ortiq quvvat tanlab olinishi kerak. Chunki, tanlangan transformatorlar generator quvvatini to'liq o'ziga olishi kerak. Elektr stantsiyalarda odatda, “blok-generator-transformator” qo'llaniladi va shuning uchun kuchaytiruvchi podstantsiyalar transformatorlari soniga teng bo'ladi.

b) Pasaytiruvchi podstantsiya transformatorlarini tanlash.

Amaliyotda pasaytiruvchi podstantsiyalarda transformatorlarning soni ikkitadan iborat bo'ladi. Odatda, podstantsiyalarda bir xil quvvatli, cho'lg'amlarni ulanish guruhi bir xil bo'lgan transformatorlar o'rnatiladi. II va III – toifali podstantsiyalarda ikkita transformatorni o'rnatishda har bir transformatorning quvvati, ulardan birini avariya li o'chish ehtimolini hisobga olgan holda, PK tomonidagi yuklama quvvatining 70% ta'minlashi hisobga olinadi.

I – toifali elektr iste'molchilar uchun transformatorlar 100% zahira bilan tanlaniladi.

III – toifali podstantsiyalarda bitta transformator o'rnatishga ruxsat beriladi, qachonki, yuklama quvvati 10MVA va uni 24soat ichida almashtirish imkoniyati bo'lsa.

v) Avtotransformatorlarni tanlash.

Avtotransformatorlarni qo'llash - kam isrof va katta quvvat uzatish imkonini beradi, hamda iqtisodiy xarajatlarni kamaytiradi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, avtotransformatorlar faqat bitta 100/100/50 nisbatda ishlaydigan qilib transformator ishlab chiqarish korxonasida tayyorlanadi va bu avtotransformatorlarning kuchaytirish rejimida ishlashini chegaralab qo'yadi.

Misol. Avtotransformatorni PK cho'lg'ami 6.8-jadvalda ko'rsatilganidek, YuK cho'lg'aming nominal quvvati 50% ga hisoblangan. Bunday holda generatorga 60MVA quvvatli avtotransformator tanlab bo'lmaydi. Unga 125MVA nominal quvvatli avtotransformator tanlash kerak bo'ladi. Bu esa, podstantsiya uchun iqtisodiy xarajatlarni oshib ketishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun avtotransformatorlarni faqat pasaytiruvchi podstantsiyalarda qo'llash tavsiya etiladi. Avtotransformatorni nominal quvvati deganda, YuK cho'lg'ami orqali bera oladigan chegaraviy quvvati tushuniladi. Agar, PK tarmog'iga nominal quvvatining 50% yoki undan pastroq quvvat uzatilsa, bir vaqtda YuK tarmog'idan PK tarmog'iga:

$$S_{o'k} = S_{yu} - S_{pk}.$$


ga teng quvvat uzatilishi mumkin.

Avtotransformatorlarning elektr tarmoqlarida ishlatilloyihasi

Pasaytiruvchi podstantsiyalarda tanlanadigan transformatorlar soni ikkitadan kam bo'lmagan holat uchun har birining quvvati YuK va PK tomonlaridagi yuklama va iste'molchilar toifasini hisobga olgan holda tanlanadi.

g) Podstantsiyalar parametrlarini hisoblash.

Misolga qo'shimcha qilib "B" va "C" podstantsiyalar uchun transformatorlar tanlaymiz.



4.4-rasm. Avtotransformatorlarning elektr tarmoqlarida ishlatilishi.

"C" Podstantsiya 62,5MVA quvvatga ega. II – toifa va YuK tomonidagi kuchlanishi - 110 kV. 6.6-jadval bo'yicha $0,7 \cdot 62,5 = 43,7 \text{ MVA}$ hisoblangan ikkita bir xil transformator tanlaymiz. To'la quvvat bo'yicha TRDN – 40000/110 rusumidagi transformator katalogdan tanlanadi, uning parametrlari quyidagicha:


Bir transformator uchun	“C” podstantsiya uchun
$R_t = 1,44 \text{ Om}$	$R_c = 1,44/2 = 0,72 \text{ Om}$
$X_t = 34,8 \text{ Om}$	$X_c = 34,8/2 = 17,4 \text{ Om}$
$\Delta P_{po'l} = 42 \text{ kVt}$	$\Delta P_{po'l} = 42/2 = 84 \text{ kVt}$
$\Delta Q_{po'l} = 280 \text{ kVAr}$	$\Delta Q_{po'l} = 280/2 = 560 \text{ kVAr}$

Hisoblangan parametrlar almashtirish sxemasiga yoziladi.

“B” podstantsiyaning PK tomonida 111MVA, O’K tomonida 62,5MVA yuklama mavjud (“C” podstantsiya va 2-HT dagi quvvat isrofini hisobga olmagan holda).

6.7-jadvaldan 2ta avtotransformator ATDSTN – 200000/220/110 iste’molchilarni quyidagi rejimlarda ta’minlashni hisobga olib tanlanadi. Maksimal rejimda:


Ikki avtotransformator ishlab turgan vaqtda PK tomoniga 400MVA quvvat uzatish mumkin, aslida esa 111MVA kerak. O’K tomoniga $400 - 111 = 289 \text{ MVA}$ quvvat lozim bo’ladi. Demak, $2 * 200$ quvvat to’g’ri keladi, lekin ortiqchasi bilan.



4.5- rasm. Avtotransformatorlarning ish rejimidagi holati.

Avariya dan keyingi rejimda:

Avtotransformatorlardan biri o’chib, ikkinchisi ishlayotganda PK tomoniga - 111MVA quvvat uzatiladi, O’K tomoniga $200 - 111 = 89 \text{ MVA}$ quvvat uzatiladi, aslida esa 43,7 MVA quvvat kerak bo’ladi. PK cho’lg’ami bir transformator o’chganda maksimal rejimda 11% ga yuklanadi.



4.6-rasm. Avtotransformatorlarning avariya dan keyingi rejimdagi holati.

PK cho’lg’ami 50% ga mo’ljallangan, bitta transformator bunda II – toifali 111MVA yuklamani ta’minlay oladigan ko’rinadi, lekin hamma yuklama I – toifali

bo'lmaydi, podstantsiyalarda II va III – toifali ma'lum % istemolchilar ham bo'ladi. Agar kurs loyihasini bajarayotgan talabani "B" podstantsiya uchun shunday avtotransformator tanlash qoniqtirmasa, u holda 3ta TDSTN – 1000000/220/110 rusumli avtotransformator tanlash variantini ko'rish mumkin.

Maksimal rejim:

Avtotransformatorning PK tomonida 150 MVA yuklama ta'minlanadi, 111 MVA o'rniga YuK tomonidan $300 - 111 = 189$ MVA yuklama ta'minlanadi.

Avariya rejim (bir avtotransformator uchun):

Avtotransformatorning PK tomonida 100 MVA yuklama, 111 MVA o'rniga ta'minlanadi. O'K tomonida $200 - 111 = 89$ MVA yuklama, 43,7 MVA yuklama o'rniga ta'minlanadi. Ikki variantni solishtirib elektr ta'minoti va ishonchliligini texnik-iqtisodiy xarajatlar bo'yicha (6.7, 6.11, 6.13 – jadvallardan foydalanib) solishtirib ko'ramiz.

4.8 - jadval

	Ikkita avtotransformatorli	Uchta avtotransformatorli
Avtotransformatorlar	$2 \times 508 = 1016$ mln. so'm	$3 \times 508 = 1524$ mln. so'm
220 kV qurilma jihozlari	$2 \times 300 = 600$ mln. so'm	$3 \times 300 = 900$ mln. so'm
110 kV qurilma jihozlari	$2 \times 120 = 240$ mln. so'm	$3 \times 120 = 360$ mln. so'm
10 kV qurilma jihozlari	$2 \times 4,2 = 8,4$ mln. so'm	$3 \times 4,2 = 12,6$ mln. so'm

Jami : $1864,4$ mln. so'm $2796,6$ mln. so'm

Texnik-iqtisodiy hisob "B" podstantsiya uchun 2ta 200 MVA avtotransformator varianti imkoniyatining kattaligi 24,4%ni ko'rsatadi, shuning uchun keyingi "B" podstantsiya parametrlarini shu variant bo'yicha 8-jadvaldan foydalanib hisoblaymiz:

4.9-jadval

Bir avtotransformator uchun	Ikki avtitransformator uchcun
$R_{yuk} = 0,39 \text{ Om}$	$R_{yuk} = 0,39 : 2 = 0,2 \text{ Om}$
$R_{o'k} = 0,2 \text{ Om}$	$R_{o'k} = 0,2 : 2 = 0,1 \text{ Om}$
$R_{pk} = 0,5 \text{ Om}$	$R_{pk} = 0,5 : 2 = 0,25 \text{ Om}$
$X_{yuk} = 30,4 \text{ Om}$	$X_{yuk} = 30,4 : 2 = 15,2 \text{ Om}$
$X_{o'k} = 0$	$X_{o'k} = 0$
$X_{pk} = 54,0 \text{ Om}$	$X_{pk} = 54 : 2 = 27 \text{ Om}$
$\Delta P_{po'l} = 125 \text{ kVt}$	$\Delta P_{po'l} = 125 * 2 = 250 \text{ kVt} = 0,25 \text{ MVt}$
$\Delta Q_{po'l} = 1000 \text{ kVAr}$	$\Delta Q_{po'l} = 1000 * 2 = 2000 \text{ kVAr} = 2 \text{ MVar}$

4.4 Radial variant printsipl sxemasini tuzish

Elektr ta'minot kuchlanishi, elektr tarmog'inining kesimi va podstantsiyalardagi transformatorlar tanlagandan so'ng, shu tarmoqning printsipl sxemasi tuziladi. Unda, tarmoqdagi QT nuqtalar soni, simning markalari, uzunligi va tarmoq raqamlari ko'rsatilgan holda, podstantsiyalar (to'liq, aktiv va reaktiv quvvatlar, iste'molchilarning toifasi, transformatorlar rusumi va ularning soni, YuK, PK va O'K kuchlanish shinalar sistemasi ko'rsatilgan holda) tasvirlanishi kerak. Pasaytiruvchi podstantsiyalarning PK tomonidagi yacheykalar soni podstantsiya to'la quvvati

bo'yicha (6.16-jadval) tanlanadi va uning sxemasi bir chiziqli qilib chiziladi. II, III-toifali va berk podstantsiyalarda ko'priqli sxema yoki soddalashtirilgan uzgich va qisqa tutashtirgichli sxemalarni qo'llash tavsiya etiladi. Bu elektr ta'minoti ishonchliligini pasaytirmasdan iqtisodiy xarajatlarni kamayishiga olib keladi. Misol tariqasida yuqorida hisoblangan variantning printsiplial (4.7- rasm) sxemasini keltiramiz.

4.5 Ekvivalent almashtirish sxemasi

Elektr tarmoqning ekvivalent almashtirish sxemasi, qabul qilingan printsiplial sxema asosida tuziladi. Yuqorida hisoblangan parametrlar bo'yicha sxema parametrlari jadvalini tuzib chiqloyihasi lozim.

4.10-jadval

Havo elektr uzatish liniyalari uchun

Havo tarmoqlari №	Bir zanjir uchun			
	R_{kt}, Om	X_{kt}, Om	Q_c, MVAr	$Q_c/2 \text{ MVAr}$
1-HT	11,7	38,7	12,7	6,35
2-HT	7,8	25,8	8,46	4,23
3-HT	va h.k			
Ikki zanjir uchun				
1-HT	5,85	19,35	25,4	12,7
2-HT	va h.			

4.11-jadval

Transformatorli podstantsiyalar uchun

Podstantsiyalar nomi	Aktiv qarshiliklar			Induktiv qarshiliklar			Po'latdagi isrof	
	R_{YUK}, Om	$R_{O'K}, \text{Om}$	R_{PK}, Om	X_{YUK}, Om	$X_{O'K}, \text{Om}$	X_{PK}, Om	$\Delta P_{po'l}, \text{MVt}$	$\Delta Q_{po'l}, \text{MVAr}$
Podstantsiya "B"	$\frac{0,39}{0,2}$	$\frac{0,2}{0,1}$	$\frac{0,5}{0,25}$	$\frac{30,4}{15,2}$	0	$\frac{54}{27}$	$\frac{0,125}{0,25}$	$\frac{1}{2}$
Podstantsiya "C"	$\frac{1,44}{0,72}$	-	-	$\frac{3,48}{17,4}$	-	-	$\frac{0,042}{0,084}$	$\frac{0,28}{0,56}$
	va hamma podstantsiyalar uchun							

Izoh: Jadvaldagi suratda – bir transformator uchun, maxrajda – ikkita transformator uchun parametrlar keltirilgan. Ekvivalent almashtirish sxemasida elektr uzatish tarmoqlari «II» simon, transformator «Г» simon sxema bilan ifodalanadi. Bunda o'tkazuvchanlik (yoki po'latdagi isroflar) transformatorni ta'minlanish tomonida ko'rsatiladi, ya'ni kuchaytiruvchi podstantsiya – YuK tomonida. Ikki parallel QT yoki postantsiyadagi ikki transformatorlardan bitta elementi almashtirish sxemasida tasvirlanadi, parametrlari esa ikki parallel QT (4.8- rasm) yoki ikki transformator uchun beriladi. Ekvivalent almashtirish sxemasi keyingi hisoblar uchun ishchi sxema hisoblanadi. Shuning uchun u yirik, behato va yaqqol ko'rinishga ega bo'ladi. Unga hisoblangan parametrlar yozilishi kerak.

4.6 Radial variant tarmoqni nominal kuchlanish bo'yicha quvvat isrofiga hisoblash

Elektr energiyani elektr stantsiyadan iste'molchilarga uzatishda elektr tarmog'ini barcha bo'g'imlarida quvvat va energiya isrofi sodir bo'ladi. Bu isrof taxminan elektr stantsiya shinalaridan uzatilgan energiyaning 10% ini tashkil qiladi. Kuchlanish isrofining sezilarli qismi elektr uzatish tarmoqlariga va uning kamroq qismi podstantsiyalardagi transformatorlarga to'g'ri keladi. Radial variant tarmoqni nominal kuchlanish bo'yicha quvvat isrofiga hisoblashda, ko'rilyotgan elektr ta'minot sxemasining barcha bo'g'imlaridagi aktiv ΔP va reaktiv ΔQ quvvat isroflarini aniqlash lozim bo'ladi.

1) HT lardagi aktiv quvvat isrofi ΔP_{HT} – bu elektr tarmog'i simlarini qizish isrofi bo'lib, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$\Delta P_{HT} = \frac{P_{HT}^2 + Q_{HT}^2}{U_N^2} * R_{HT}, \text{ MVt.}$$

Bu yerda: P_{HT} - tarmoqda oqadigan aktiv quvvat, MVt,


Q_{HT} - tarmoqda oqadigan reaktiv quvvat, MVAr,

U_N - tarmoqning nominal kuchlanishi, kV,

R_{HT}, X_{HT} – tarmoqning aktiv va induktiv qarshiliklari, Om.



4.7 - rasm. Radial variantning printsipl sxemasi.



4.7- rasm. Ekvivalent almashtirish sxemasi.

2) HT lardagi reaktiv quvvat isrofi ΔQ_{HT} - bu simning atrofi va ichida elektr magnit maydon hosil qilishdagi isrofi:

$$\Delta Q_{HT} = \frac{P_{HT}^2 + Q_{HT}^2}{U_n^2} * X_{HT}, \text{ MVar.}$$

3) ikki cho'lg'amli transformatorlardagi aktiv quvvat isrofi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\Delta P_{po'l} = \frac{P_{HT}^2 + Q_{HT}^2}{U_n^2} * X_{HT} - P_{po'l}, \text{ MVt.}$$

Bu yerda: P_T va Q_T - transformator cho'lg'amlarida oqadigan aktiv va reaktiv quvvatlar, U_n – transformator YuK tomonidagi kuchlanish, R_T – transformatorning aktiv qarshiligi, $\Delta P_{po'l}$ – transformatorning po'latidagi aktiv quvvat isrofi, (6.6- jadval) dan olinadi, MVt;

4) ikki cho'lg'amli transformatorlardagi reaktiv quvvat isrofi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\Delta Q_{po'l} = \frac{P_T^2 + Q_T^2}{U_n^2} * X_T, \text{ MVar.}$$

Bu yerda, X_T – transformatorning induktiv qarshiligi, Om.

$\Delta Q_{po'l}$ – transformator po'latidagi reaktiv quvvat isrofi, 7 – jadvaldan olinadi, MVar;

5) uch cho'lg'amli va avtotransformatorlardagi quvvat isroflari karrali almashtirish sxemalari bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

To'la quvvat isroflari:

$$\Delta S_T = \Delta P_T + j\Delta Q_T, \text{ MVA},$$

Aktiv quvvat isroflari:

$$\Delta P_T = \Delta P_{YuK} + \Delta P_{O'K} + \Delta P_{PK} + \Delta P_{po'l}, \text{ MVt},$$

Reaktiv quvvat isroflari:

$$\Delta Q_T = \Delta Q_{YuK} + \Delta Q_{O'K} + \Delta Q_{PK} + \Delta Q_{po'l}, \text{ MVar},$$

Bu yerda,

- YuK cho'lg'amidagi aktiv quvvat isrofi, MVt,

$$\Delta P_{YuK} = \frac{P_{YuK}^2 + Q_{YuK}^2}{U_n^2} * R_{YuK}.$$

- O'K cho'lg'amidagi aktiv quvvat isrofi, MVt,

$$\Delta P_{O'K} = \frac{P_{O'K}^2 + Q_{O'K}^2}{U_n^2} * R_{O'K}.$$

- PK cho'lg'amidagi aktiv quvvat isrofi, MVt,

$$\Delta P_{PK} = \frac{P_{PK}^2 + Q_{PK}^2}{U_n^2} * R_{PK}.$$

R_{YuK} , $R_{O'K}$, R_{PK} - transformator YuK, O'K, PK cho'lg'amlar qarshiliklari, Om, U – transformator YuK cho'lg'aming nominal kuchlanishi, kV. Huddi shunday, ΔQ_{YuK} , $\Delta Q_{O'K}$, ΔQ_{PK} , ΔQ_T , aniqladi. Misolda boshlangan hisoblashni davom ettiramiz va bir vaqtda almashtirish sxemasini to'ldirib boramiz:

1. "C" Podstantsiya transformatorlardagi isrof:

$$\Delta P_T = \frac{P_C^2 + Q_C^2}{U_n^2} * R_T = \frac{50^2 + 45,8^2}{110^2} * 0,72 = 0,27 \text{ MVt}.$$

$$\Delta Q_T = \frac{P_C^2 + Q_C^2}{U_n^2} * X_T = \frac{50^2 + 45,8^2}{110^2} * 17,4 = 6,6 \text{ MVar}.$$

2. To'la quvvatni aniqlaymiz:

$$S_1 = S_C + \Delta S_T = (50 + j45,8) + (0,27 + j6,6) = 50,27 + j52,4 \text{ MVA}.$$

3. Transformator po'latidagi isrofnı hisoblaymiz:

$$S_2 = S_1 + \Delta S_n = (50,27 + j52,4) + (0,084 + j0,56) = 50,354 + j52,96 \text{ MVA}.$$

4. 2- QT oxirida generatsiya bo'layotgan reaktiv quvvatni hisoblaymiz:

$$S_3 = S_2 + Q_C/2 = 50,354 + j52,96 - j4,23 = 50,354 + j48,7 \text{ MVA}.$$

5. 2-HT dagi quvvat isrofi :

$$\Delta P_{2-HT} = \frac{P_Z^2 + Q_Z^2}{U_n^2} * R_{2-HT} = \frac{50,354^2 + 48,7^2}{110^2} * 7,8 = 3,2 \text{ MVt}.$$

$$\Delta Q_{2-HT} = \frac{P_Z^2 + Q_Z^2}{U_n^2} * X_{2-HT} = \frac{50,354^2 + 48,7^2}{110^2} * 25,8 = 10,58 \text{ MVar}.$$

6. To'la quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$S_4 = S_3 + \Delta S_{2-HT} = (50,354 + j48,7) + (3,2 + j10,58) = 53,554 + j62,39 \text{ MVA}.$$

7. 2 - QT boshida generatsiya bo'ladigan reaktiv quvvatni hisobga olamiz:

$$S_5 = S_4 + Q_c/2 = 53,554 + j62,39 - j4,23 = 53,554 + j58,16 \text{ MVA.}$$

8. “B” podstantsiya avtotransformatorining O’K cho’lg’amidagi to’la quvvat isrofi ($X_{O'K} = 0$ bo’lgan holatda faqat aktiv quvvat isrofi topiladi):

$$\Delta S_{O'K} = \Delta P = \frac{P_5^2 + Q_5^2}{U_n^2} * R_{O'K} = \frac{53,554^2 + 58,16^2}{220^2} * 0,1 = 0,013 \text{ MVt.}$$

9. Tola quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$S_6 = S_5 + \Delta S_{O'K} = 53,554 + j58,16 + 0,013 = 53,567 + j58,16.$$

10. “B” Podstantsiyaning avtotransformatori PK cho’lg’amidagi quvvat isrofi:

$$\Delta P_{PK} = \frac{P_{PK}^2 + Q_{PK}^2}{U_n^2} * R_{PK} = \frac{100^2 + 49^2}{220^2} * 0,25 = 0,065 \text{ MVt.}$$

$$\Delta Q_{PK} = \frac{P_{PK}^2 + Q_{PK}^2}{U_n^2} * X_{PK} = \frac{100^2 + 49^2}{220^2} * 27 = 7,02 \text{ MVAr.}$$

11. To’la quvvatlar quyidagicha hisoblanadi :

$$S_7 = S_6 + \Delta S_{PK} = (100 + j49) + (0,065 + j7,02) = 100,065 + j56,02 \text{ MVA.}$$

12. S_8 Kirxgofning 1- qonuni asosida aniqlanadi:

$$S_8 = S_6 + S_7 = (53,567 + j58,16) + (100,065 + j56,02) = 153,63 + j114,18 \text{ MVA.}$$

13. “B” Podstantsiya avtotransformatorining YuK cho’lg’amidagi quvvat isrofi:

$$\Delta P_{YuK} = \frac{P_8^2 + Q_8^2}{U_n^2} * R_{YuK} = \frac{153,63^2 + 114,18^2}{220^2} * 0,2 = 0,152 \text{ MVt.}$$

$$\Delta Q_{YuK} = \frac{P_8^2 + Q_8^2}{U_n^2} * X_{YuK} = \frac{153,63^2 + 114,18^2}{220^2} * 15,2 = 11,55 \text{ MVAr.}$$

14. To’la quvvatni hisoblaymiz:

$$S_9 = S_8 + \Delta S_{YuK} = (153,63 + j114,18) + (0,152 + j11,55) = 153,78 + j125,73 \text{ MVA.}$$

15. Transformator po’lat o’zagi va cho’lg’amlaridagi isrofnini hisoblaymiz:

$$S_{10} = S_9 + \Delta S_n = (153,78 + j125,73) + (0,25 + j2) = 154,03 + j127,73 \text{ MVA.}$$

16. 1-HT oxirida generatsiya bo’ladigan reaktiv quvvatni hisobga olamiz:

$$S_{11} = S_{10} + Q/2 = 154,03 + j127,73 - j12,7 = 154,03 + j115,03 \text{ MVA.}$$

17. 1- QT dagi quvvat isrofi :

$$\Delta P_{1-HT} = \frac{P_{11}^2 + Q_{11}^2}{U_n^2} * R_{1-HT} = \frac{154,03^2 + 115,03^2}{220^2} * 5,85 = 4,45 \text{ MVt.}$$

$$\Delta Q_{1-HT} = \frac{P_{11}^2 + Q_{11}^2}{U_n^2} * X_{1-HT} = \frac{154,03^2 + 115,03^2}{220^2} * 19,35 = 14,71 \text{ MVAr.}$$

18. To’la quvvatni hisoblaymiz:

$$S_{12} = S_{11} + \Delta S_{1-HT} = (154,03 + j115,03) + (4,45 + j14,71) = 158,48 + j129,74 \text{ MVA}$$

19. 1-HT boshidagi reaktiv quvvat generatsiyasini hisobga olamiz:

$$S_{13} = S_{12} + Q_c/2 = 158,48 + j129,74 - j12,7 = 158,48 + j117,04 \text{ MVA.}$$

20. Xuddi shunday, radial variant tarmoqning boshqa bo'g'imlari ham, oxirgi podstantsiyadan 4-HT boshidagi quvvatgacha (ya'ni S_{14} .) hisoblanadi.

21. Almashtirish sxemasidagi IES generatori ishlab chiqaradigan quvvatni ya'ni S_{15} ni yozamiz keyin, undan IES o'z ehtiyojlariga sarf bo'ladigan quvvatni ayiramiz.

$$S_{16} = S_{15} - S_{o'e}.$$

Izoh: Elektr stantsiya o'z ehtiyojiga sarf bo'ladigan quvvat elektr stantsiyaning turiga va o'rnatigan quvvatiga qarab aniqlanadi:

Podstantsiya uchun – $P_{o'z}$ 1% $P_{o'm}$ dan,

IES uchun $P_{o'z}$ 12 - 15% $P_{o'm}$ dan,

IEM uchun $P_{o'z}$ 8% $P_{o'm}$ dan.

22. Transformatorlar po'latidagi isrofni quyidagicha hisoblaymiz:

$$S_{17} = S_{16} - \Delta S_p.$$

23. IES dagi kuchaytiruvchi podstantsiya transformatorlaridagi quvvat isrofini aniqlaymiz:

$$\Delta P_t = \frac{P_{17}^2 + Q_{17}^2}{U_n^2} * R_r; \quad \Delta Q_t = \frac{P_{17}^2 + Q_{17}^2}{U_n^2} * X_t; S_r = P_r + jQ_t.$$

24. IESdagi podstantsiya YuK tomonidagi quvvat:

$$S_{18} = S_{17} + \Delta S_t.$$

25. Kirxgofni I – qonuniga asosan sistema bilan bog'lovchi 3-HT tarmoqdagi quvvatning qiymati va yo'nalloiyhasi aniqlanadi ya'ni S_{19} :

$$S_{18} = S_{13} + S_{14} + \dots + S_n \mu S_{19}.$$

26. Sistema bilan bog'lovchi tarmoqdagi quvvat isrofini aniqlash, ya'ni S_{20}, S_{21}, S_{22} larni hisoblash boshqa hisoblangan tarmoqlardagi kabi faqat tarmoqdagi quvvat yo'nalishini hisobga olgan holda, amalga oshiriladi.

27. Sistema bilan quvvatning bog'lanish koeffitsiyenti:

$$\cos\varphi_{o'rt} = \frac{P_{22}}{S_{22}}.$$

Agar $\cos\varphi = 0,97-1$ me'yoridan kichik bo'lsa, unda sxemada kompensatsiya uskunasini qo'llash kerak bo'ladi.

28. Kompensatsiya uskunasini quvvati va o'rnatish joyi tanlangandan keyin radial variant aktiv va reaktiv quvvatlarning yangi oqimini hisobga olgan holda, qaytadan hisoblanadi. Yangi almashtirish sxemasi to'ldiriladi va faqat keyingina 29-punktни bajarishga o'tiladi.

29. Tarmoqning FIK quyidagicha aniqlanadi (6ga qaralsin):

$$\eta = \frac{P_3 + P_c + \dots + P}{P_{IES}} * 100\%.$$

30. S_1 dan S_n gacha aniqlangan barcha quvvatlar almashtirish sxemasiga yoziladi.

4.7. Tarmoq va transformatorlarda yillik elektr energiya isrofi

Elektr energiyani uzatish va taqsimlashda tarmoq va podstantsiyalarda elektr energiya isrofi sodir bo'ladi. 35kV gacha elektr tarmoqlarida bu isroflar simlardagi qizish isrofi bilan asoslanadi, 110kV va yuqori elektr tarmoqlarda esa unga:

- transformatorlarda po'lat o'zagidagi isrof, elektr uzatish tarmoqlarda esa – tojlanish va izolyatsiyadagi isroflar qo'shiladi.

a) HT lardagi yillik elektr energiya isrofi ΔW_{kt} quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta W_{HT} = \frac{P_{MAX}^2 + Q_{MAX}^2}{U_n^2} * R_{HT} \cdot \tau_{HT} ; MVt*soat.$$

bu yerda P_{max} , Q_{max} —HT dan oqadigan maksimal aktiv va reaktiv quvvat,

R_{ht} —aktiv qarshilik, T_{ht} -maksimal isroflar vaqti soat, “T” va $\cos\phi$ asosida 6.5- jadvaldan aniqlanadi.

b) Ikki cho'lg'amli transformatorlardan yillik elektr energiya isrofi:

$$\Delta W_t = \Delta W_{PS} = \Delta P_T^* \tau_T + \Delta P_p^* t, MVt*soat, \text{ bu yerda-8760 soat.}$$

v) Uch cho'lg'amli transformator va avtotransformatorlarda yillik elektr energiya isrofi:

$$\Delta W_t = \Delta P_{yuk} * \tau_{yuk} + \Delta P_{o'k} * \tau_{o'k} + \Delta P_{pk} * \tau_{pk} + \Delta P_p * t,$$

Bu yerda $\tau_{o'k}$ va τ_{pk} - cho'lg'amlarning T va $\cos\phi$ qiymatlari asosida aniqlanadi.

τ_{yuk} - $T_{o'k}$ va T_{pk} bo'yicha hisoblangan $T_{o'rt}$ ga bog'liq:

$$T_{vps} = T_{yuk} = \frac{P_{pk} * T_{pk} + P_{o'k} * T_{o'uk}}{P_{pk} + P_{o'k}}.$$

g) Elektr tarmog'idagi jami yillik elektr energiya isrofi:

$$\Delta W_{\Sigma} = \Delta W_{ps} + \Delta W_{xt}, \text{ \% larda}$$

$$\Delta W_{\%} = \frac{\Delta W_{\Sigma} * 100\%}{W_{IES}}.$$

Bu yerda: ΔW_{Σ} - tarmoqning barcha HT lari va podstantsiyalaridagi energiya isrofi, W_{IES} - ta'minlovchi elektr stantsiya ishlab chiqaradigan energiya(maksimal quvvat S_{max} va $T = 5000$ soat). Misolda mustahkamlaymiz (yuqoridagi misol asosida):

$T_v = 4000$ soat, $T_s = 4500$ soat ma'lum, $T_{IES} = 5000$ soat qabul qilanadi.

$T_{ht} = 4167$ soat, $T_{ht} = 4500$ soat, sistema bilan bog'lovchi HT uchun $T = 5000$ soat.

Hisob oxirgi podstantsiyadan boshlab quyidagi tartibida bajariladi.

1. “C” podstantsiyadagi energiya isrofi: $\Delta W = 1570 * 10^3$ kVt*soat.

2.“B” podstantsiyadagi energiya isrofi,uch cho'lg'amli transformatorlarda har bir cho'lg'am uchun quvvat koeffitsiyentini aniqlaymiz.

a) PK tomonida $T_v = 4000$ soat bo'yicha

$$\cos\phi_{pk} = \frac{P_{pk}}{S_{pk}} = \frac{100}{111} = 0,9. \quad \tau_{pk} = \tau_v = 2350 \text{ soat.}$$

b) O'K tomonida

$T_{ht-2} = 4500$ soat bo'yicha;

$$\cos\phi_{o'k} = \frac{P_5}{S_5} = \frac{153,554}{\sqrt{153,63^2 + 114,18^2}} = 0,66. \quad \tau_{o'k} = 3400 \text{ soat.}$$

v) YuK tomonida $T_{2-HT} = 4167$ soat bo'yicha

$$\cos\phi_{yuk} = \frac{P_8}{S_8} = \frac{153,63}{\sqrt{153,63^2 + 114,18^2}} = 0,8. \quad \tau_{yuk} = 2800 \text{ soat.}$$

g) Transformator cho'lg'amlaridagi energiya isroflari quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:
 $\Delta W_v = \Delta P_{yuk} \cdot \tau_{yuk} + \Delta P_{o'k} \cdot \tau_{o'k} + \Delta P_{pk} \cdot \tau_{pk} + \Delta P_p \cdot t = 0,154 \cdot 2800 + 0,013 \cdot 3400 + 0,165 \cdot 2350 + 0,25 \cdot 8760 = 3046 \cdot 10^3 \text{ kVt} \cdot \text{soat}.$

Huddi shunday, sxemaning qolgan podstantsiyalarida ham energiya isrofi hisoblanadi. Podstantsiyalardagi jami energiya isrofi aniqlanadi:

$$\Delta W_{ps} = \Delta W_{IES} + \Delta W_v + \Delta W_c + \dots + \Delta W_n.$$

1- HT dagi energiya isrofi : $T_{1-HT} = T_{o'rt} = 4167 \text{ soat},$

$$\cos \varphi_{1-HT} = \frac{P_n}{S_n} = \frac{154,3}{\sqrt{154,3^2 + 115,03}} = 0,8.$$

$$\tau_{1-HT} = 2800 \text{ soat}$$

$$\Delta W_{1-HT} = \Delta P_{1-HT} \cdot \tau_{1-HT} = 4,5 \cdot 2800 = 2600 \cdot 10^3 \text{ kVt} \cdot \text{soat}.$$

Huddi shunday qolgan HTlardagi energiya isroflari aniqlanadi. Barcha tarmoqlardagi energiya isroflari yig'indisi topiladi :

$$\Delta W_{ht} = \Delta W_{ht-1} + \Delta W_{ht-2} + \dots + \Delta W_{ht-n}$$

Radial variantning to'liq energiya isrofi aniqlanadi :

$$\Delta W_{\Sigma} = \Delta W_{PS} + \Delta W_{HT}.$$

To'liq isrof % larda :

$$\Delta W_{\%} = \frac{\Delta W_{\Sigma} \cdot 100\%}{W_{IES}}.$$

Hisoblashda **E'TIBOR** bering, odatda HTlardagi isroflar podstantsiyalardagi isroflarga nisbatan kattaroq bo'ladi .

5. Yopiq sxemali variantning elektr ta'minoti hisobi

5.1 Yopiq tarmoq va qo'shilmalari kuchlanishni tanlash

Halqa kuchlanishi 4 - bo'limdagi tavsiyalarga asosan podstantsiyalar quvvatlari va tarmoqlar uzunligi bo'yicha tanlanadi.

Qo'shilmalar kuchlanishini radial variantdagidek va ta'minlovchi podstantsiya kuchlanishi asosida tanlanadi.

5.2 Podstantsiyalarda transformatorlar tanlash va ular parametrlarini hisoblash

Podstantsiyalarda iste'molchilar toifasi va quvvatini, transformatorlar soni va quvvatini tanlash (4.3) da ko'rsatilganidek bo'ladi. Shuni hisobga olish kerakki, yopiq variantda halqaga ulangan barcha podstantsiyalar YuK tomonida halqa kuchlanishiga ega bo'ladi va ba'zi podstantsiyalar uchun radial variantlaridagiga nisbatan boshqa quvvatli transformator tanlash kerak. Ular uchun parametrlar takroran aniqlanmaydi, faqat radial variantga qaralsin deb ketiladi.

5.3. Hisobiy yuklamalarni aniqlash

Murakkab yopiq tarmoqlarni hisoblash uchun "Elektrotexnikaning nazariy asoslari" kursida o'rganiladigan uslublar, kontur yoki tugun tenglamalari, o'zgartirish va boshqa murakkab uslublar ishlatilishi mumkin.

Biroq bu kurs loyihasi o'quv maqsadini ko'zlagani uchun biz yopiq elektr tarmoq sifatida berilgan hududni ta'minlashning oddiy halqali variantini ko'rib chiqloyihisini tavsiya etamiz.


Bunda xalqali elektr tarmoq ikki tomonlama ta'minlanuvchi tarmoqni ikkita mustaqil radial variantga bo'linadigan tok yoki quvvat bo'linish nuqtasini izlashga asoslanadi. Bu tarmoqlarni hisoblash radial variantdagi kabi bajariladi. Xalqali hisoblashni boshlashda shuni esda tutish kerakki xalqadagi haqiqiy quvvatlar oqimini faqat yuklamalar quvvati va tarmoqlar parametrlari, ya'ni qarshiliklar va o'tkazuvchanliklar ma'lum bo'lsagina topish mumkin. Boshqa tomondan HTlarining kesimlari va parametrlarini xalqadagi quvvatlar oqimini aniqlamasdan turib hisoblab bo'lmaydi. Shuning uchun xalqani dastlabki hisoblashda ba'zi chekinishlarga yo'l qo'yamiz:

1. Ta'minot manbaalarining kuchlanishi, qiymati va fazalar mosligi bo'yicha bir xil hisoblanadi.
2. Elektr tarmoq bo'ylab kuchlanish bir xil, ya'ni kuchlanish isrofi hisobga olinmaydi.
3. Xalqada quvvatlar oqimi hisoblanganda transformatorning YuK tomoniga keltirilgan yuklamalardan foydalaniladi. Masalan, agar halqaga "B" podstantsiya ulangan bo'lsa, undan O'K tomonida 2-HT bo'yicha "C" podstantsiya ta'minlanadi, unda xalqani hisoblashda "B" nuqtadagi quvvat qilib $111 + 62,5 = 173,5$ MVA emas, balki YuK shinasidagi hisobiy yuklama $S_{10} = (153,626 + j130,49)$ MVA qabul qilinadi.
